

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR

Oltmisheva Nasibaxon G'ulomjonovna

Farg'ona Politexnika Instituti "O'zbekiston tarixi va Ijtimoiy fanlar kafedrasi" katta o'qituvchisi

Toshmatov Ulug'bek Qodirjon o'g'li

Farg'ona Politexnika instituti, Qurilish fakulteti, 5-20 guruh talabasi

Annotasiya: Maqolada eng avvalo, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik o'zbek xalqining yuksak qadriyatligini ko'rsatilgan. Fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarini, ularning qonun oldida tengligini ta'minlash alohida e'tiborga olinganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, moldovan, chuvash, yahudiy, sinogoglar, nasroniy, bahoiy, mentalitet, katolik kostyoli, rezolyutsiyasi, departament.

O'zbekiston – umumiy uyimiz. Dunyoda nechta millat-elat, qancha xalq bo'lsa, har birining o'ziga xos milliy urf-odat va an'analari mavjud. Bugungi globallashuv zamonida millatlar o'rtasida turli nizolar bo'lib turgan bir paytda, 130 dan ortiq millat yashayotgan O'zbekistondagi millatlararo totuvlik va diniy bag'rkengligi bilan xar qancha faxrlansak arziydi. Yurtimizda ko'p millat vakillari istiqomat qilishiga qaramay o'zbek xalqimiz uzoq o'tmish yillardan beri boshqa din vakillari bilan inoq va hamjihatlikda istiqomat qilib kelmoqda. Bu o'zbek xalqining mehribon va do'stona xalq ekanligidan dalolatdir.

O'zbekiston hududi qadimdan turli dinlarga e'tiqod qiluvchi ko'p millatli mamlakat sifatida ajralib turgan. Yurtimizda zardushtiylik, yahudiylik, xristianlik va islom diniga e'tiqod qiluvchi aholi emin erkin yashab kelmoqda. Ma'lumki, diniy bag'ri kenglik g'oyasi xilma-xil dingga e'tiqod qiluvchi kishilarning bir zamin, bir Vatanda oliv janob g'oya niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashni anglatadi. Qadim - qadimdan din aksariyat milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Milliy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham dinning ana shu tabiat bilan chambarchas bog'liq. Chunki, dunyodagi barcha dinlar ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik, poklik, mehr - oqibat chorlaydi. Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqi boshidan kechirgan o'g'ir qatag'on yillari va ikkinchi jahon urishi yillarda ko'p sitamlarni boshidan kechirgan. Boshqa millat vakillari bo'lgan koreyslar, nemislar, turklar, polyaklar, greklar, qrim - tatarlar O'zbekiston xalqidan do'stlik mehrini topganlar. Bunga yaqqol misol qilib **Shomahmudovlar** — insonparvarlikning yuksak namunasini ko'rsatgan oila sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Bu esa o'zbek tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Diyorimizda yetishib chiqgan allomalarining asarlarida ham diniy bag'rikenglik targ'ib qilingan g'oyalarni uchratamiz. Jumladan, alloma Abu Mansur al-Moturuydiyning "**Tilovat ahli sunna**" asarida Qur'oni Karim oyatlaridan birini tafsir etib, Cherkov va sinogoglarni vayron etish man etiladi. Shuning uchun ham ular shu vaqtgacha saqlanib qolgan deya o'z so'zlarini yozib qoldirgan. Bugungi kunda respublikamiz bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan 2224 ta diniy tashkilotdan 175 ta noislom bo'lib, ulardan 159 tasi nasroniy, 8 tasi yahudiylar, 6 tasi bahoiy jamoasi, 1 tasi Krishnani anglash jamiyati va bittasi budaviylikni tashkil etadi. Bulardan tashqari respublikada Konfenssiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda. Ko'p millatli mamlakat siyosatining asosiy maqsadi millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni shakllantirish zarur. Bunda, eng

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

avvalo, fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarini, ularning qonun oldida tengligini ta'minlash alohida e'tiborga olingan. Davlatimiz diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni qonuniy jihatdan tasdiqlab qo'ygan. Bu borada Asosiy qonunimiz — Konstitutsiya nafaqat jamiyat va davlat taraqqiyotini belgilovchi oliy darajadagi siyosiy-huquqiy hujjat, balki mamlakatimizda yashovchi har bir fuqaroning munosib turmush tarzini kafolatlovchi muhim asosdir. Konstitutsiyamizning **18,29,31,61-moddalarida** din va vijdon erkinligi belgilab berilgan. Unda xalqimiz mentalitetiga mos keladigan ishonch-e'tiqod, insof, diyonat, mehru oqibat, or-nomus, iffat va hayo kabi ezgu fazilatlar o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi **4-moddasida** qayd etilganidek, "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi".

Konstitutsiya – millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik va e'tiqod erkinligimiz garovidir.

Mazkur sohada O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy tamoyillari sirasiga fuqarolarning teng huquqligi, ijtimoiyadolat, qonun ustuvorligi, millat va elatlarning madaniy, til va diniy qadriyatları, an'ana va urf-odatlarini o'zaro hurmat qilish kiradi. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi qoshida 138 ta milliy madaniy markaz, bundan tashqari, 16 ta konfessiyaga tegishli 2300 ga yaqin diniy tashkilot faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi mamlakatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni siyosat darajasigacha olib chiqdi, mamlakatda bir qator nufuzli loyihalarni amalga oshirdi.

- Mustaqillik yillarda yuzlab cherkov, sinagoga va ibodat uylari, xususan, Toshkent, Samarqand, Navoiydagagi pravoslav ibodatxonalari, Toshkent shahridagi katolik kostyoli, Samarqanddagagi Arman-apostol cherkovi, Toshkentdagagi Budda ibodatxonasi qayta barpo etildi, ta'mirlandi. Shuningdek, Hazrati Imom, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Hakim va Imom at-Termiziylar, Imom Moturidiy, Shohi Zinda, Qosim Shayx, Zangi ota kabi o'nlab qadimiy yodgorlik majmualari obod qilindi va yangilari qurildi.
- Tegishli oliy ta'lif muassasalarida sifatli diniy ta'lif olish imkoniyati kengaytirildi. O'rta, oliy diniy ta'lif, magistratura, boshlang'ich doktorantura va doktoranturani o'z ichiga olgan diniy ta'lifning besh bosqichli tizimi shakllantrildi. Islomiy ta'lif muassasalariga talabalarni qabul qilish kvotasi ikki baravar oshirildi. Shuningdek, Toshkent pravoslav seminariyasi va Toshkent xristian seminariyasi o'quv dargohlari o'z faoliyati yo'lga qo'yildi.
- Har yili Toshkent Islom universitetida diyorimizda istiqomat qilayotgan 16 ta konfessiya va 130 dan ziyod millat va elat vakillari ishtirokida "Konfessiyalararo muloqot va diniy bag'rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tishi.
- 1992 yil 13 yanvar – Toshkentda Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil qilindi. Respublika baynalmilal madaniyat markazi millatlararo munosabatlar, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining totuvligi va hamkorligini ta'minlash, ularning o'ziga xos madaniyatları va ma'naviy qadriyatlarını rivojlantrishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash sohasidagi siyosatni amalga oshirishda davlat organlariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashuvchi mustaqil muassasa hisoblanadi.
- 1995 yilda Toshkent shahrida "**Bir samo ostida**" nomli xristian-musulmon konferentsiyasi tashkil etilib, unda Butunjahon Cherkovlar Kengashi vakillari hamda qator chet el xristian tashkilotlari a'zolari ishtirok etdilar.
- Prezidentimizning 2018 yil 16 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Konfessiya ishlari bo'yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi.Kengash tarkibi 9 nafardan 17 nafar a'zoga — O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi. E'tiborli jihatni, kengash a'zoligiga a'zolari oz sonli diniy tashkilotlarning rahbarlari ham kiritildi. Jamoatchilik maslahatlashuv organi hisoblangan mazkur kengashning asosiy maqsadi O'zbekistondagi mavjud diniy-ijtimoiy jarayonlarni muhokama qilish hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat etib tayinlandi.

- Dunyoda kamdan-kam mamlakatlarida kuzatiladigan yana bir holat, O'zbekistonda ta'lif 7 tilda amalga oshiriladi. Bular sirasiga o'zbek va qoraqalpoq tillaridan tashqari rus, qozoq, turkman, tojik va kirgiz tillarini kiritish mumkin.
- Teleradio ko'rsatuv 12 tilda efirga uzatiladi, gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tillarda chop etilmoqda.

Umuman olganda, xalqaro hamjamiyat mamlakatimizning millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasidagi faoliyatini yuqori baholamoqda va O'zbekiston tajribasiga katta qiziqish bilan qaramoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasin ining 72-sessiyasida bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarining huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklif etilishi va ushbu hujjatning 2018 yil 12 dekabrda qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bundan tashqari 2020 yil 13 oktyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyası sessiyasida bo'lib o'tgan saylovlarda O'zbekiston milliy davlatchiligidan tarixida ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zoligiga uch yil muddatga — 2021-2023 yillarga saylandi. Mamlakatimiz uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo 193 davlatdan 169 tasi ovoz berdi. Bu saylovda eng ko'p ovoz berilgan davlat O'zbekiston bo'ldi. Bu ham yurtimizda millati va dinidan qat'i nazar, inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan, shu jumladan, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning e'tirofi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki, insoniyat uchun eng katta boylik tinchlikdir, tinchlikning manbai esa ahillik va hamjihatlikdir. O'zaro totuvlik va do'stlik, bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillari barqaror go'shadagina inson emin-erkin yashaydi, har qanday orzusiga erishadi. Shu jihatdan qaraganda, bizning eng katta boyligimiz, eng asosiy yutug'imiz, Yurtboshimiz aytganidek, avvalo, Vatanimiz osmonining musaffoligi, jamiyatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolararo ahillik va hamjihatlik, do'stlik va birdamlik muhitidir. Bunday beba ho ne'matlarning qadriga yetish hamda turli millat va elatlar vakillari bir oila farzandlaridek ahil-inoq yashayotgan Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, kimligimizdan qat'i nazar, barchamizning muqaddas burchimizdir.

Foydalangan adabiyotlar.

1. https://iiv.uz/oz/news/millatlararo_totuvlik_va_dinlararo_bagrikenglik_yuksalish_poydevori.
2. <https://uzhurriyat.uz/2016/04/19/bag-rikenglik-namunasi>.
3. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/>
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
5. Yovqochev Sh.A. Siyosat va din. o'quv qo'llanma.
6. Narbekov A.V "Dinshunoslik asoslari", Toshkent-2007.



Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

7. Олтмишева Насибахон Гуламжоновна, Мамаюнусова Матлюба Исмаиловна Особенности формирования личности // Проблемы Науки. 2020. №1 (146). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-formirovaniya-lichnosti>
8. Олтмишева Насибахон Гуламжоновна Методы повышения познавательной и творческой активности молодежи // Вопросы науки и образования. 2019. №4 (49). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/metody-povysheniya-poznavatelnay-i-tvorcheskoy-aktivnosti-molodezhi>
9. Насибахон Гуламжоновна Олтмишева ЁШЛАР ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ // Scientific progress. 2021. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-izhtimoiy-faolligini-rivozhlantirish-zhamiyat-tara-iyotining-mu-im-omili> (дата обращения: 06.01.2022).
10. Олтмишева Насибахон Гуламжоновна, Эргашев Улугбек Адхамович Нравственное сознание и поведение молодежи в современных условиях // Проблемы Науки. 2019. №11-1 (144). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-soznanie-i-povedenie-molodezhi-v-sovremennyh-usloviyah>
11. Oltmisheva N.G. Tuhtarov I.M. Turdialyeva Sh.I., Xakimov A.M., Teshabaeva L.A., Ergashev U.A., Kadirova D.S. Kant's pedagogy and contemporaneity // Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation – 2021 - 32(2) – C. 1633-1636.
12. Burkhonov, I. (2021, June). THE IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ASOMIDDIN URINBOYEV IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE KOKAND KHANAT. In *Конференции*.
13. Burkhonov, I. M. (2020). "ZAKAT" HAS ENSURED FAIRNESS AND BALANCE IN SOCIETY. *Theoretical & Applied Science*, (5), 201-204.
14. Muhiddinovich, B. I. (2020). Negative impact of the tax system on political life-on the example of the history of the Kokand Khanate (1850–1865). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 790-795.
15. Burkhonov, I. (2021, August). THE IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ASOMIDDIN URINBOYEV IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE KOKAND KHANAT: <https://doi.org/10.47100/conferences. v1i1. 1242>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.05).
16. Бурхонов, И. М. (2019). ҚЎҚОН ХОНЛИГИ МАҶМУРИЙ БОШҚАРУВИДА СОЛИҚ ТИЗИМИНИНГ СИЁСИЙ ХАЁТГА САЛБИЙ ТАЪСИРИ (1850-1865). *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (19).
17. Burkhonov I.M.(2021) FROM THE HISTORY OF THE TRANSLATION OF THE WORK OF ABURAZZAK SAMARKAND «MATLA'I SA'DAYN AND MAJMA'I BAHRAIN» "Экономика и социум" №11(90)2021,138-144
18. Бурхонов, И. М. (2020). «ЗАКОТ»-ХАЛҚИМИЗ ҲАЁТИДА АДОЛАТ ВА МУТАНОСИБЛИК ОМИЛИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 3(5).
19. ХАТАМОВА ЗУМРАДХОН НАЗИРЖОНОВНА, (2020) ОСОБЕННОСТИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА, 5 (295) МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ, 254-256.
20. Nazirjonovna, H. Z., & Abdumannobovich, N. M. (2020). Tax system on the territory of kyrgyzstan during the Kokand Khanate. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(6), 209-212.



Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

21. Xatamova, Z. (2020). Expenditure of state funds replenished by taxes in the history of the kokand khanate. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 5(3), 274-277.
22. Хатамова, З. (2021, August). EXPENDITURE OF INCOME FROM TAXES AND LEVIES IN THE KOKAND KHANATE: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1230>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.05)..
23. Хатамова, З. Н. (2020). ҚҮҚОН ХОНЛИГИДА СОЛИҚЛАР ҲИСОБИГА ТҮЛДИРИЛГАН ХАЗИННИНГ САРФ ЭТИЛИШИГА ОИД МАЪЛУМОТЛАР. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1 № 4).
24. Xatamova Zumradxon Nazirjonovna. *INFORMATION ON THE PROVISION OF THE FUND IN THE KOKAND KHAN*. Look to the past. 2020, SI, pp.590-595